

# SHARTNOMA № 13

## Avtomobil transportida yuk tashish haqida

«18» 10 2022 yil

Paxtaobod tuman

«Ko'kto'nlik trans» mas'uliyati cheklangan jamiyati Nizomga asosan faoliyat ko'rsatuvchi va bundan buyon matnda «Yuk tashuvchi» deb nomlanuvchi nomidan rahbari Normatov Xamidillo bir tomondan va Paxtaobod tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri bundan buyon matnda «Yuk qabul kiluvchi» deb nomlanuvchi nomidan amaldagi Nizomga asoson ish yurituvchi O'smonov Axmadillo orqali ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar;

### SHARTNOMA MAZMUNI

1. Ushbu shartnomaga muvofiq «Yuk tashuvchi» «Yuk qabul kiluvchi» tomonidan va unga ishonilgan xajmdagi ko'mirni olib chiqish va uni belgilangan manzilga etkazib berish uchun vakil etilgan shahsga topshirish majburiyatini olsa, «Yuk qabul kiluvchi» esa ko'mirni qabul kilib olish uchun quyida belgilangan xaq to'lash majburiyatlarini o'z zimmlariga oladilar.

No	Bajariladigan xizmat nomi	O'lchov birligi	Narhi	Summasi
1	Ko'mir tashish xizmati	Xizmat	47.150.000	47.150.000
	<b>Jami:</b>			<b>47.150.000</b>

Shartnoma umumiy summasi: 47.150.000 (Qirq etti million bir yuz ellik ming) so'mni tashkil etadi.

### TASHISH SHARTLARI

2. «Yuk tashuvchi»ning muhri bilan tasdiqlangan yo'l varakasi xaydovchiga Yuk olish, Yuklash va tushirish manziliga kirib borish hamda mazkur ob'ektlarda mahsus ruxsatnomasiz u erdan jo'nab ketish huquqini beradi.
3. Yuk tashish uchun «Yuk qabul kiluvchi»ga avtomobil berish ushbu shartnomaning 4-bo'limiga muvofiq tashish qiymatlari oldindan to'langandan keyingina amalga oshiriladi.
4. Ushbu shartnomada ko'rsatilmagan Yuklar, shuningdek tashish uchun mahsus moslamalar, bog'lash moslamalari, avtomobillarni jihozlash talab kiladigan katta, suyuq, uzun hajmli va boshqa Yuklarning har biri tashishga alohida holatlarda tomonlarning kelishuvi bo'yicha qabul qilinadi. Avtomobilni ko'shimcha jixozlash «Yuk qabul kiluvchi»ning hisobidan amalga oshiriladi.

### TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

5. «Yuk tashuvchi» quyidagilarga majbur;
  - 5.1. Yuk tashish uchun «Yuk qabul kiluvchi»ga sanitariya talablariga javob beradigan texnik jihatdan soz bo'lgan avtomobillar berish;
  - 5.2. Yukning hajmi va tashish hususiyatiga karab Yuklarni tashishni amalga oshirish uchun avtomobillar turi va miqdorini aniqlash, «Yuk qabul kiluvchi»ning buyurtmasiga muvofiq barcha Yuklarni manzillariga etkazib berishni ta'minlash;
  - 5.3. Unga ishonib topshirilgan Yukni belgilangan manzilga etkazib berish hamda uni «Yuk qabul kiluvchi»ning mas'ul vakiliga Yuk tashish uchun buyurtmada belgilangan muddatda topshirish;

### «YUK QABUL KILUVCHI» QUYIDAGILARGA MAJBUR.

6. Kunning o'n ikki soatidan kechiktirmay «Yuk tashuvchi»ga oldindan tashiladigan Yuk uchun zarur bo'lgan talabnomani yozma yoki telefon orqali xabardor qilish.
7. Yo'l varakalar, tovar-transport nakladnoylarni o'z vaqtida hamda tegishli ravishda rasmiylashtirishni ta'minlash, ortish, tushirish, manzillarga xaqiqiy kelgan va ketgan vaqtini belgilash, xujjatlarni rekvizitlarini to'ldirishning noto'g'riligini, noaniqligini hamda to'la bo'lmasligining barcha oqibatlariga javobgarlikni o'z zimmasiga olish.

8. Sochiladigan va changiydigan Yuklarni tashishda ularni tegishli yopqichlar bilan yopish va qisib turuvchi moslamalar bilan mahkamlashni ta'minlash.
9. Avtomobillarni sutkaning va yil faslining har kaday vaqtida to'siqlarsiz o'tish va borib kelish imkoniyatini ta'minlovchi, qirib kelish yo'li hamda Yuklash-tushirish maydonlarini soz holda saqlash.
10. Yuklash-tushirish mexanizmlari, «Yuk qabul kilish»ning uzliqsiz ishlashi, maydonchalar va ularga kiruvchi yo'llar, sutkaning korongi paytida yoritilishini ta'minlash.
11. Avtomobillarni doimiy turadigan joyidan tashqariga ishlash uchun jo'natilganda «Yuk qabul kiluvchi» hisobidan xaydovchilar uchun ularni ovqatlanish, yotish joyi va avtomobillar uchun turadigan joy bilan ta'minlab ularni ko'riqlashini tashkil etish.

### **XAQ TO'LASH TARTIBI VA YUK TASHISHGA HISOB-KITOBLAR**

12. Yuklarni tashish va u bilan bog'liq ishlar va hizmatlar uchun xaq to'lash O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 1992 yil 4 maydagi 221-sonli «Aviatsiya va avtomobillarda tashishlar uchun tariflar to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq shartnomaviy (erkin) narhlar asosida belgilanadi.
13. Yuklar tashishda shartnomaviy tariflar, ya'ni Yuk tashish uchun erkin narhga muvofiqlashtirish bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.
14. «Yuk tashuvchi» bilan «Yuk qabul kiluvchi» o'rtasida hisob-kitoblar shartnoma g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng 5 bank ish kunida oldindan 30% to'lov amalga oshirilgandan so'ng «Yuk tashuvchi» ko'mirni olib chiqib ketish majburiyatini oladi shartnoma bo'yicha ishlar to'liq bajarilgandan so'ng hamda hisob fakturalar rasmiylashtirilgan so'ng qolgan 70% to'lov «Yuk tashuvchi»ni hisob raqamiga o'tkazib beriladi.
15. Bajarilgan ishlar uchun tovar-transport nakladnoy, yoxud Yukni o'lchash yoki tortish dalolatnomasi, yoxud «Yuk qabul kiluvchi» tomonidan yo'l varakasiga bosilgan muhr hisob varak faktura yozishga asos hisoblanadi. Hisob varak fakturani olgandan so'ng, «Yuk jo'natuvchi» 10 kundan kechiktirmay ko'rsatilgan transport hizmati uchun to'lovni amalga oshirishi lozim.
16. «Yuk qabul kiluvchi» tomonidan tashish xaqqini o'z vaqtida to'lamaganligi uchun «Yuk tashuvchi»ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.
17. Jo'natilgan tovarlarga oid to'lov yoki tovar-transport hujjatlarining nushasini belgilangan muddatda yubormaganlik yoki tovarlar jo'natilganligi to'g'risidagi boshqa axborotni taqdim etmaganlik uchun etkazib beruvchi sotib oluvchiga axborot taqdim etilmagan har bir holat uchun etkazib berilayotgan tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to'laydi.

### **TOMONLARNING JOVOBGARLIKLARI**

18. Tashishlarning ushbu shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarmagan yoxud tegishlicha bajarmagan xollarda tomonlar amaldagi Qonunlarga muvofiq javobgar bo'ladilar.
19. Tovarlarini etkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq etkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar etkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq etkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.
20. Agar etkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad

etik, etkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar va xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib berganlik uchun jarima etkazib beruvchidan (pudratchidan) akseptsiz tartibda undirib olinadi.

21. Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi bank muassasasiga tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning sifati, assortimenti va navi lozim darajada emasligi to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgandan keyin o'n kun ichida taqdim etiladi. Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi belgilangan o'n kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

#### **FORS-MAJOR XOLATI**

22. Tomonlardan xech biri boshqa tomonning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni tomonlarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilishi yoki amalda boshlanganligi, fuqorolik tartibsizligi, er kimirlashi, suv bosishi, yong'in va boshqa ofatlar bilan bog'liq holda bajarilmaganliklari uchun javobgarlikni o'tamaydi.
23. Majburiyatni bajarish uchun imkoniyat bo'lmay qolgan tomon boshqa tomonni besh sutka davomida yozma ravishda xabardor kiladi.

#### **NIZOLARNI KURIB CHIKISH TARTIBI**

24. Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq paydo bo'ladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar iqtisodiy sud orqali xal kilinadi.
25. Shartnomani bajarilishidan bir tomonlama voz kechishga, uzgartirishga, bekor kilishga yoki to'xtatib ko'yishga yo'l ko'yilmaydi.

#### **ALOXIDA SHARTLARI**

26. Tomonlar yuklarni tashishni qiymatlashuviga olib keladigan tashish shartlari o'zgarganda, yangi qonunlar, me'yoriy xujjatlar kuchga kirganda, narhlar, eng kam ish xaqi miqdori va hakazolar o'zgarganda uch kun muddatda tashish tannarhining yangi kalkulyasiyasini tuzish hamda yangi shartnomaviy narhlarni ko'shimcha kelishuv orqali kelishib olishga majburdirlar.
27. Tomonlarga ularning o'zaro munosabatlarini belgilovchi ko'shimcha bitimlar tuzish huquqi beriladi. Agar «Yuk qabul kiluvchi» tashishlar yangi qiymatini tasdiqlamasa, «Yuk tashuvchi» yangi qiymat amal kila boshlagan paytdan boshlab shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etiladi.

#### **SHARTNOMANING AMAL KILISH MUDDATI.**

28. Shartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik bo'linmidan ro'yxatga olingan kundan kuchga kirib 31 dekabr 2022 yilgacha amal kiladi.
29. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nushada tuzilib, taraflardan har biriga bir nusxadan berilgan.
30. Mazkur shartnomaga har qanday ko'shimcha va o'zgartirishlar ular yozma shaklda tuzilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil kilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan xaqiqiy hisoblanadi.

## TOMONLARNING YURIDIK MANZILI VA BANK REKVIZITLARI.


### «YUK TASHUVCHI»

«Ko'kto'nlik trans» MCHJ

Paxtaobod tuman Ko'kto'nlik M.F.Y.  
XR: 20208000200735101001  
INN: 304627172  
MFO: 00074  
Milliy bank Andijon filiali

Direktor  X. Normatov

M.O'.



### «YUK QABUL KILUVCHI»

«Paxtaobod tumani xalq ta'limi bo'limi»

Paxtaobod shahar Kelajak ovozi ko'cha  
x/r: 100022860032327092100075062  
INN: 200294928  
MFO: 00014. OKONX: 97600  
Moliya vazirligi yagona g'azna hisob varagi  
x/r: 23402000300100001010  
Markaziy bank XKKM Toshkent shahar  
MFO: 00014. STIR: 201122919

Raxbar  A.O'smonov

M.O'.



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN  
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

FO0007587483

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Paxtaobod tumani xalq ta'limi tomonidan 13.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Paxtaobod tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**A.M.MANNAPOV**

18.10.2022